

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY-IQTISODIY FAKULTETI

IQTISODIY TA'LIM VA TURIZM KAFEDRASI

KURS ISHI

Mavzu: Turkiya iqtisodiyoti rivojlanishi va tajribasi

Bajardi:

Juraev Murod

Ilmiy rahbar:

i.f.n., dotsent A.T.Juraev.

Buxoro - 2013 yil

Mundarija

№	Mavzuning nomi	bet
1	Kirish I bob . Turkiya iqtisodiyoti haqida tushuncha 1. Turkiya haqida umumiy ma’lumot 2. Turkiya iqtisodiyoti va rivojlanishning asosiy sabablari 3. Turkiya davlatining jahon iqtisodiyotiga tutgan o’rni.....	
2	II bob.Turkiyada turizmning rivojlanishi 1. Turkiya turizmi haqida umumiy ma’lumot 2. Turkiyaning asosiy turistik jozibadorliklari haqida ma’lumot 3. Turkiya turizmining jahonda tutgan o’rni..... Xulosa Foydalangan adabiyotlar Ilova.....	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi:

Biz hozirgi kunda rivojlangan va rivojlanib kelayotgan davlatlarni turizmsiz ta'savur qilishimiz qiyin. Masalan; Aqsh, Fransiya, Germaniya ,Yaponiya Xitoy ,Turkiya va boshqalar misol bo'la oladi.

Turizm – turli din va oqim a'zolari, ateistlar va diniy qarashlarga qiziqish-tanishish bilan yondashayotgan kishilar orasida yanada samarali uchrashuv va dialoglarni taminlovchi jahon yo'lidir va hozirgi kunda kelib esa jadal va to'xtovsiz ravishda rivojlanib kelmoqda.

Bizga ma'lumki Turkiya davlati o'zining qulay tabiiy geografik joyi, o'zining plajlari va mehmonxonalari bilan butun dunyoda mashhur. Shuni ham aytib o'tish kerakki, iqtisodiyoti va turizm sohasi bo'yicha ham yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. 2011-yil ma'lumotiga ko'ra, Turkiya turistlar tashrif buyuradigan 6- o'rinda turadi.

Tadqiqotning maqsadi:

Turkiya turizm sohasini o'rganish hamda Buxoro viloyatida uni tadbiq qilish yo'llatini ko'rsatib berish .

Tadqiqot predmeti:

Turkiya iqtisodiyoti va turizmi

Tadqiqotning uslubiy asosi:

Qonunlar, farmonlar, statistik to'plamlar, davriy matbuot materiallari, o'quv qo'llanmalari, darsliklar, ma'ruza matnlari, dars konspektlari, internet sahifalari.

Ishning tarkibi:

Kirish, mening bu kurs ishimning 1- bob “**Turkiya iqtisodiyoti haqida tushuncha**” deb nomlanadi . Bu bobda biz Turkiya iqtisodiyoti haqidagi umumiy tushunchalar, jahonda tutgan o'rni , rivojlanishi , olib borilayotgan ishlari, va O'zbekiston bilan bank sohasidagi hamkorliklari haqida gapiramiz. 2-bob esa “ **Turkiyada turizmning rivojlanishi**” deb nomlanadi. Bu bobda esa biz Turkiyaning turizmi haqida umumiy ma'lumotlar , jahonda tutgan o'rni, rivojlanishi, uning jozibadorligi , tabiiy sharoitining qulayligi , turizm destinatsiyalari haqida gapiriladi va statistik ma'lumotlar keltirib diagrammalarda tushtirshga harakat qilaman. **Xulosa va takliflar , Foydalangan adabiyotlar.** Mavzuni yoritishda 6ta jadvaldan foydalandi.

I BOB TURKIYA IQTISODIYOTI HAQIDA

TUSHUNCHA

1.1.Turkiya haqida umumiy ma'lumot

Har bir mamlakatning o'rganish jarayonida, avvalo uning geografik o'rni ko'z oldimizga keladi. Shuning uchun ham, Turkiyaning geografik o'rni, uning yaqin tarixi va o'tmishi haqida qisqacha to'xtalib o'tsak...

Turkiya davlatini (Turkiya Cumhuriyeti), “Yevropa bilan Osiyoni bog'lovchi ko'priq” deyishlari bejiz emas, albatta, chunki haqiqatdan ham Turkiyaning geografik o'rni jahon mamlakatlari ichida nihoyatda qulay mamlakatlardan biri hisoblanadi. Turkiya Qora dengiz va O'rta dengiz oralig'ida joylashgandir. Shu bilan birga Turkiya ikki materik o'rtasida, ya'ni Yevropa va Osiyoda joylashgan davlat bo'lib, uni Marmar dengizi, Bosfor va Dardaneli bo'g'ozlari ajaratib turadi.

Turkiya janubda Suriya va Iroq, sharqda-Eron, shimoli-sharqda Gruzuya, Ozarbayjon, shimoli-g'arbda Bolgariya va Gresiya bilan chegaradosh.

Uning xududi:**780580** kv.km.ni tashkil qiladi, shundan Yevropa qit'asida- **23,7** ming kv.km, hamda Osiyo materigida: **756,3** ming kv.km. yer maydonini tashkil qiladi. Demak, mamlakat xududi jahon xududining **0,15** %ini tashkil qiladi. Quruqlik maydoni:**770760** kv.km Suvlik maydoni: **9820** kv.km Mamlakat xududining eng baland nuqtasi-katta **Ararat** tog'idir (5165 metr). Umumiy xududning **30**%ini o'rmonlar, yaylov va qir adirlar **12**%ini tashkil qiladi.

Chegarasi:Umumiy chegarasi: **2648** km.Azarbayjon **9** km, Balgariya **240** km, Guruziya **252** km, Gretsia **206** km, Eron **499** km, Iroq **352** km Siriya **822** km, Armaniston **268** km. Qirg'oq bo'yi **7200** km

Poytaxti-**Anqara shahri**,

Aholisi:(2012-yil 1 yanvar ma'lumotiga ko'ra) **74.724.269** taxminan 75mln kishi **67.803.927** kishi (2000) 1 kv.km maydonda **97** kishi yashaydi. Umumiy aholining **76.8%** shaharda, **23.2%** ini esa qishloq maydonida yashaydi.Umumiy aholining 37.532.954 erkaklar ya'ni(50.2%) ayyollar esa 37.191.315

0-14 yoshda 25.3% (erkaklar 9.691.297 ayyollar 9.187.285)

15-64 yoshda 67.4% (erkaklar 23.655.657 ayyollar 23.288.033)

65 yoshda va kattalar 7.3%(erkaklar 2.150.103 ayyollar 2.850.072)

O'rta yoshdagilar:29.7%(erkaklar 29.1 ayyollar 31.3)

Aholining o'sish darajasi: 1.35%ni tashkil etadi 1.45%(2010) 2.11(1927)

Aholining tug'ulish darajasi: 17.93% har 1000 kishiga nisbatan

Aholining o'lim darajasi 6.3% har 1000 kishiga nisbatan

Istambul **13624240** kishi , Izmir **3965232** kishi, Adana **2874693** kishi, Bursa **76724** kishi shaharlari kiradi Mamlakat **73** ta viloyatdan tashkil topgan. Yirik rivojlangan va industrial, hamda aholisi ko'p bo'lgan shaharlarga Anqara, Istanbul Izmir Adana Bursa shaharlari kiradi. Yirik port shaharlari qatoriga Istanbul, Izmir, Trabzon shaharlari kiradi. Istanbul porti Yevropadagi yirik port shaharlari qatoridan joy olgan.

Dini:Islom. Musulmonlar 99% Xristian va Yahudiylar 1% ni tashkil etadi.

Etnik tarkibi : Turklar 80%, Kurdlar 20%

Rasmiy til: Turk tili 85% aholi turk tilida, 12% kurd tilida 3 % boshqa tillarda gaplashadi.

Aholining savodxonlik darajasi:0-15 yoshgacha majburiy boshlang'ich maktab 94% aholi savodxon (yozish va o'qishni biladi)

Mustaqillik:29-oktabr 1923- yilda milliy bayram sifatida nishonlanadi.

Konsititutsiyasi 7-noyabr 1982-yilda e'lon qilingan 2001-yil 17-oktabrda qayta o'zgartirishlar kiritilgan.

Qishloq xo'jaligi: Asosiy mahsulotlari tamaki mahsulotlari, paxta, don, zaytun, shakar qamish, sitrus mevalar.Mamlakatga asosan garbiy Yevropa va janubiy Osiyoga Amerikadan geyohvand moddalar kiritiladi

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari: 390.590 kv.km(2012)

O'rmon maydonlari: 213.900 kv.km

Energarika ishlab chiqariladi 49 mlrd 523 ming kw 1 yilga (2012)

Istemol qilinadi 210,2 mlrd kw **Eksport:** 2.67mlrd.kw

Neft ishlab chiqarishi: 254 mln tonna

Istamol qilinadi 41.5 mln tonna

Eksport :46.1 mln tonna

Import 16.8 mln tonna

Davlatni Prezident boshqaradi. Parlament tomonidan Prezident lavozimiga 7 yil saylanadi. Hozirgi Prezident Abdulloh Gul Milliy bayrami-29 oktabr (Respublika e'lon qilingan kun).

Pul birligi-turk lirasi: 1 Aqsh-1.75 lirga teng (2013 yil 5-fevral) 1Evro-2,36 lirga teng. Jahon valyuta jamg'armasi tomonidan 1990 yilda turk lirasi erkin almashtiriladigan valyutalar qatoriga kiritilgan.

Bulardan tashqari, Osiyo mamlakatlarida buyuk ximik Mendeleyevning ro'yxatiga kiruvchi barcha “jism”larga boy qit'adir.

Agarda mamlakat bo'yicha alohida mamlakatda tabiiy resurslarni ko'rsak:

Mamlakatda ko'plab tabiiy resurslar mavjuddir. Jumladan, surma (jahon bo'yicha surma zahirasiining 26%i), simob (jahon bo'yicha simob zahirasiining 27%i), xrom (jahon bo'yicha xrom zahirasiining 10%i, taxminan 25 mln.tonna), volfram rudasi (jahon bo'yicha zahiraniing 7%i), uran rudasi (jahon bo'yicha uran rudasi zahirasiinng 8,5%), mis (jahon bo'yicha mis zahirasiining 4,5%i) aynan Turkiyaga to'g'ri keladi.

Turkiyaning tarixi.

Turk xalqining milliy-ozodlik xarakati 1918-1923 yillar mobaynida ro'y berib, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari ichida birinchi bo'lib, respublika tuzilishiga olib keldi. 1923 yilning 29-oktabridan Turkiya Respublikasi e'lon qilindi. Mamlakatning milliy mustaqilligi va Turkiyaning jahondagi yetakchi mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'yishida va mamlakat iqtisodini ko'tarishda taniqli turk davlat arbobi

Mustafo Otaturk tashabbusi katta ahamiyatga ega. Mustafo Otaturk (u 1938-yilda vafot qiladi) Turkiya Respublikasining birinchi Prezidenti bo'ldi.

- 2-jahon urushi paytida Turkiya o'zini betarafligini, ya'ni neytral deb e'lon qiladi, lekin amalda u yashirin tarzda Germaniyaga harbiy va iqtisodiy yordam berib keladi.
- 1947- yili AQShning Turkiyaga harbiy yordam berishi to'g'risidagi va 1948-yilgi Turkiya-AQSH o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik bitimlari asosida AQSH Turkiyaga moddiy va iqtisodiy yordam berishi haqidagi bir qancha bitimlar ikki mamlakat o'rtasida imzolandi. Bundan tashqari, AQShning bergan iqtisodiy yordamlari evaziga Turkiya xududlarida AQShning bir necha harbiy bazalarini qurilishga olib keldi.
- Turkiya 1952-yilda **NATO**ga a'zo bo'lib kiradi va u uzoq vaqt g'arb mamlakatlariga qarab ish tutadi.
- 1959-yili AQSH-Turkiya o'rtasida harbiy hamkorlik haqidagi bitim imzolandi, shu tuzilgan bitim asosida AQSH- Turkiya xududlarida harbiy bazalarga ega bo'lishi va uni qurish xuquqini berdi. Keyinchalik bu ikki mamlakat o'rtasida 1980-yili **«birgalikda mudofaa va iqtisod bo'yicha hamkorlik»** bitimi imzolanadi, hamda yana ikki yildan so'ng, ya'ni 1982-yilning 29-noyabridan esa **«Ishonch memorandum»** bitimi imzolanib, hozirgi kungacha ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorliklar mana shu bitimga amal qilinib kelinmoqda.
- 1960-yilda mamlakatda davlat to'ntarilishi bo'ldi va mamlakatning yangi Konstitusiyasi e'lon qilindi.
- 1980-yilning 12-sentabrida armiyaning oliy rahbariyati harbiy to'ntarishi natijasida tuzilgan Milliy xavfsizlik kengashi butun xokimiyatni 1983 yilgacha o'z qo'lga oldi. 1982-yilning 7-noyabrida esa umumxalq muhokamasidan keyin mamlakatning yangi qomusi, ya'ni konstitusiyasi kuchga kirdi. Ushbu hukumat mamlakat byudjetidan **20%**gacha bo'lgan qismini harbiy harajatlar uchun sarf etadi.

- Buning oqibatida mamlakatda iqtisodiy qiyinchiliklar vujudga keladi, ya'ni sanoat tarmoqlarida va qishloq xo'jaligida turg'unlik bo'lishiga, ishsizlarning ko'payib ketishiga, valyuta-moliyaning keskin yomonlashuviga olib keldi.
- 1983-yilda parlament saylovlaridan keyin xukumat boshqaruvi fuqarolar qo'lga o'tadi. Mamlakat rahbariyati Turkiyani Yevropa Ittifoqi Xamkorligiga a'zo qilish va shu asrning oxiriga borib mamlakat o'z taraqqiyotida G'arbiy Yevropa mamalkatlariga yetib olishga erishish niyatida ekanligini e'lon qildi. Turkiya qisqa vaqt ichida iqtisodi, sanoati va madaniyati jihatidan jahondagi nisbatan rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin oldi.

1.2. Turkiya iqtisodiyoti va rivojlanishning asosiy sabablari

Turkiya mamlakati **20-asr** so'ngida rivojlanayotgan mamlakatlarning eng yetakchi mamlakatlar qatoridan joy olishi va 80-yillarning oxirida Yangi industrial mamlakatlar qatoriga kirishiga asosiy sabablar quyidagichadir:

Turkiyaning iqtisodiy-geografik qulayligi.

Turkiya o'zining iqtisodida sanoatning rivojlanishiga katta e'tibor berishi.

Qishloq xo'jaligining rivojlanishi (g'arb mamlakatlarini g'alla bilan ta'minlashi).

Turkiya xukumatining Germaniya mamlakati bilan iqtisodiy hamkorligi.

50-70 yillar mobaynida AQSH tomonidan katta iqtisodiy yordam berilishi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning eksport qilinishi.

80-yillarda mamlakat iqtisodida «**turk modeli**» nomi ostida iqtisodiy islohotni olib borilishi.

Turk xalqining ishbilarmonligi va mehnatsevarligi (Hozirgi kunda taxminan ikki yarim milliondan ortiq turklar xorijda ishlashadi. Bularning asosiy qismi Germaniyada faoliyat ko'rsatishadi.)

Mamlakatning qazilma resurslariga boyligi - Mamlakatda ko'plab tabiiy resurslarning yirik zahiralari mavjud.

Jumladan, surma (jahon bo'yicha surma zahirasi 25%i), simob (jahon bo'yicha simob zahirasi 25%i), xrom (jahon bo'yicha xrom zahirasi 8%i-taxminan 25 mln.tonna), volfram rudasi (jahon bo'yicha zahira 7%i), uran rudasi (jahon bo'yicha uran rudasi zahirasi 5,5%i), mis (jahon bo'yicha zahira 4,5%i) aynan Turkiyaga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, mamlakat quyidagi tabiiy resurslarga boydir: toshko'mir, temir rudasi, gaz, neft, oltin, qo'rg'oshin, har xil rangli metallar va boshqa qazilma boyliklar qazib chiqarish bo'yicha jahon mamlakatlarida oldingi qatorlardan joy olgan. Qazilma boyliklarni qazish va izlash kompaniyalarining 80%i davlat sektoriga qaraydi. Anqara, Ko'niya va Sinop viloyatlarida yirik neft zahirasi mavjuddir. Turkiyada gaz qazish chiqarish faqatgina 1985 yildan boshlandi, hamda gaz qazish chiqarish mamlakatning eng yosh tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodini rivojlantirishda Turkiya xukumatining xorijiy sarmoyadorlar uchun «**ochiq eshiklar siyosatini**» olib borishi.

Mamlakat xukumati tomonidan tadbirkorlikning rivojlantirishidagi ahamiyati.

Mamlakatda 90-yillarda turizmning rivojlanishi - Turkiyaning uch tomoni dengiz bilan o'ralganligi, musaffo havosi, shifobaxsh chiroyli tabiati dunyoning barcha mamlakatlaridan millionlab sayohatchilarni o'ziga chorlaydi.

Turkiyaning iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini biz asosan to'rtta davrga bo'lib o'rganamiz:

- 1) Inqilobgacha bo'lgan davr (ya'ni 1923-yilgacha), bu birinchi bosqich iqtisodiy rivojlanishda ishlab chiqarishda davlat mulkining hukmronligi, ijtimoiy sohada bir partiyali boshqaruv tizimining mavjudligi bilan xarakterlanadi;
- 2) Inqilobdan 1940- yilgacha bo'lgan davr, ya'ni eng asosiy islohot bu 1933-yilda qabul qilingan 1-besh yillik rejasidir;
- 3) 1940-1970 yillarning oxirlarigacha;
- 4) 1980-yildan to hozirgi kungacha bo'lgan iqtisodiy o'sish davri.

Bank tizimi.

Ayni paytda Turkiyada Markaziy bank bilan birga **59** ta bank faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan **10** tasi davlat banklari (markaziy bank, **6** ta tijorat banki, **3** ta investisiya banki). **29** tasi xususiy milliy banklar, **20** tasi esa chet el banki bo'lib, shulardan **9** tasi xorij sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan va Turkiya qonunchiligiga binoan ro'yhatdan o'tkazilgan, qolgan **11**tasi chet el banklarining Turkiyadagi filiallari hisoblanadi. Faqat investisiya banklarining soni **9** ta: **3** tasi davlatga qarashli, **3** tasi mahalliy xususiy banklar va **3** tasi xorij sarmoyasi ishtirokidagi banklar.

Turkiya bank tizimining ahamiyatga molik xususiyatlaridan biri uning tuzilishining universalligidir. Bu tijorat banklariga moliya bozorlarida turli bank faoliyatini olib borish imkonini beradi. Tijorat banklarining faqat ko'chmas mulk bilan tijorat maqsadlarida olib boradigan amaliyotlari qonunchilik tomonidan ta'qiqlangan.

1930-yili tashkil etilgan Turkiya Respublikasining Markaziy banki bank-kredit tizimida alohida o'ringa ega. Bank kapitalining yarmidan ziyodi davlatga, shu jumladan **51%**i bevosita Turkiya xazinasiga tegishlidir. Bundan tashqari, xorijda uning **3** ta bo'limi ochilgan. **Markaziy bank vazifasiga quyidagilar kiradi:**

- 1) rivojlanish rejalari va dasturlariga muvofiq davlatning pul va kredit siyosatini amalga oshirish;
- 2) milliy valyuta xajmi va muammosini tartibga solish, qonun doirasida banklarni kreditlashni amalga oshirish;
- 3) bank qo'yilmalarining turlari va shartlarini belgilash;
- 4) milliy valyutaning oltin va chet el valyutalariga nisbatan kursini aniqlash;

- 5) amaldagi qonunchilik asosida va hukumat qarorlari doirasida davlatning iqtisodiy manfaatlariga muvofiq holda oltin va milliy valyuta zaxiralarini boshqarish;
- 6) chet el valyutalari va qimmatbaho metallar bilan bo'ladigan birja amaliyotlarini amalga oshirish;
- 7) jamg'arma mablag'larni sug'urtalash fondida boshqaruvni amalga oshirish.

Markaziy bank o'z vazifalarini bajarishi uchun foiz stavkalarini, banklar uchun qo'yilmalar shartlarini, chegara foiz stavkalarini belgilash, investisiyalarni tartibga solish va iqtisodiyot sohalari va sektorlari bo'yicha bank kreditlarini taqsimlash vakolatiga ega. Shuningdek, markaziy bank iqtisodiy va moliyaviy maslahatchi hamda Xazinaning moliyaviy instrumenti vazifasini ham bajaradi.

Turkiya bank tizimi kapitalning yuqori darajadagi jamlanuvini bilan xarakterlanadi. Mamlakatdagi **beshta** yirik bankda barcha aktivlarning **54%** i, depozitlarning **56%** i, kredit manbalarining **59 %**i jamlangan. Agar **10**ta yirik bankni oladigan bo'lsak, ko'rsatgichlar shunga muvofiq **79, 82%** va **81.5%** bo'ladi. Davlat banklarining kamligiga qaramay, ularda bank kapitalining **50%**i jamlangan. “Ziroat Bankasi” , “Emlak Bankasi” , “Yapi kredi Bankasi” , “Akbank” banklari esa eng yirik xususiy banklar xisoblanadi.

Xozirgi kunda Rossiyada Turkiya kapitali ishtirokidagi 5ta bank faoliyat ko'rsatmoqda: “Finasbank-Moskva” , “Iqtisodbank- Moskva” , “Yapo'kredi-Moskva” , “Garantibank-Moskva” , “Ziroat Bankasi-Moskva”.

2012-yil ikkinchi yarim malumotlariga ko'ra Turkiya savdo assosiy hamkorlari Germaniya, Rossiya va Eron hisoblanadi. Turkiya Yevropa Ittifoqiga 1995-yildan beri a'zo va o'z sanoat maxsulotlarni o'stirgan. Markaziy va Sharqiy Yevropadagi Turkiya xorijiy investitsiyalar 1.5mlrd dollordan oshiqroq. Ulardan **32%** . Rossiya **46%** Balgariya va Ruminiya tashkil qiladi qolgan Polsha va boshqa mamlakatlar kiradi. 2007-yilga kelib eksport salohiyati **115.3** mlrd dollorni tashkil

1-jadval: Turkiya kompaniyalarning jahonda tutgan o'рни

Dunyodagi o'рни	Kompaniyalar nomi	Tarmoqdagi yo'nalishi	Yillik pul aylanmasi (mlrd dollorda)	Foyda (mlrd dollorda)	Jami aktivlari (mlrd dollorda)	Bozordagi qiymati (mlrd dollorda)
274	Garanri Bankasi	Bank	9.75	2.06	77.02	16.06
288	Turkiye ish bankasi	Bank	10.97	1.61	86.34	12.15
321	Koc Holding	Tog'kon	36.34	1.32	41.80	7.45
343	Akbank	Bank	8.06	1.16	60.23	15.75
414	Sabancı holding	Tog'kon	12.93	0.78	65.24	7.33
534	Halk Bankasi	Bank	5.76	1.05	33.17	8.10
609	Vakifbank	Bank	6.25	0.81	35.48	5.93
666	Turk Telekom	Axborot va telekommunikatsiya	6.82	1.18	8.97	11.25
683	Turkcell	Axborot va telekommunikatsiya	5.89	1.55	8.00	13.19
934	Enka Insaati	Qurulish	5.87	0.50	7.63	7.29
1507	Turkish Airlines	Transport	4.00	0.74	5.10	2.87
1872	Dog'on Holding	Tog'kon	8.17	0.05	6.80	1.68

Saytni nomi

etadi lekin import **162.1** mlrd dollorga oshgan bunga assosiy sabab energiya resuslariga (gaz va neft) bo'lgan ehtiyojlar. Turkiyaning 2013-yildagi eksport

maqsadi 200 mlrd.dollorni va umumiy savdo aylanmasi **450** mlrd dollorni ko'zda tutgan. Oxirgi yigirma yil ichida eksport salohiyati sezilarli darajada tushib ketgan. 1980-yilda tabbiy gaz **74%** ga 1990-yilda **30%** 2005-yilda **12%** ga tushgan. O'rta va yuqori texnologiyalar maxsulotlar 1980-yilda **5%** dan 2005-yilda **43%** ga oshgan.

O'zbekistonda esa 1994-yildan buyon qo'shma o'zbek-turk **“UT-Bank”** banki to'laqonlik bilan faoliyat yuritmoqda. Bank sohasidagi ushbu hamkorlik ikki mamlakat o'rtasidagi moliyaviy tuzilmalar hamkorlikka ham asos soldi. Ayni paytda ushbu bank keng xizmat turlarini ko'rsatmoqda; kassa amaliyotlari, naqd va naqdsiz valyuta bilan konvertasiya amaliyotlari, shuningdek, akkreditivlarni ochish va ularga xizmat ko'rsatish yo'li bilan savdo bitimlarini moliyalash. O'zbekiston banklari esa hozircha Turkiyada o'z filiallari yoki vakolatxonalariga ega emas.

Turkiyada xorij sarmoyasi ishtirokidagi bankni ta'sis etish yoki chet el banki filialini ochish uchun Turkiya Markaziy bankida qariyb **12** million dollar miqdoridagi mablag'ni nizom sarmoyasi ko'rinishida deponentlash lozim. Ro'yhatdan o'tganligi to'g'risidagi hujjat olinganidan keyingina chet el banklari milliy banklar bilan bir qatorda qonunchilik tomonidan ruhsat etilgan bank amaliyotlarining barcha turlari bilan shug'ullanishlari mumkin bo'ladi.

- 8) amaldagi qonunchilik asosida va hukumat qarorlari doirasida davlatning iqtisodiy manfaatlariga muvofiq holda oltin va milliy valyuta zaxiralarini boshqarish;
- 9) chet el valyutalari va qimmatbaho metallar bilan bo'ladigan birja amaliyotlarini amalga oshirish;
- 10) jamg'arma mablag'larni sug'urtalash fondida boshqaruvni amalga oshirish.
- 11)

3.3. Turkiya davlatining jahon iqtisodida tutgan o'rni.

Turkiya hozirda **agrar-industrial** mamlakatdir.

Turkiyaning tashqi savdo-sotiqdagi eng asosiy sheriklari: Germaniya, AQSH,

Rossiya, Italiya va Buyuk Britaniya mamlakatlari kiradi. Turkiya eksportining asosiy ulushi G'arbiy Yevropa mamlakatlariga to'g'ri keladi, xuddi shunday holat mamlakatning importida ham, ya'ni mamlakatning asosiy importdagi ulushining **55%**i G'arbiy Yevropa mamlakatlariga to'g'ri keladi. Umumiy eksportini **40%**ini to'qimachilik mahsulotlari tashkil qiladi.

Mamlakatning eng asosiy dengiz portlari: Izmir, Istambul, Izmit, Iskandarup, Zangulda, Mersin, Samsol, Trabzon kabilar.

Mamlakatda avtomobil transportining ahamiyati katta. Temir yo'l transporti boshqa transport turlariga qaraganda ancha orqada qolgan, sababi, yuqorida aytganimizdek, mamlakat xududlarining ko'plab joylari tog'-yon bag'irlari tashkil qilganligi bois, temir yo'l transporti uncha rivojlanmagan.

Valyuta zahirasi-**37** mlrd.AQSH dollarini tashkil qiladi.

1998-yilda mamlakatning umumiy mahsulot ayirboshlash **77** mlrd.AQSH dollarini tashkil qildi, shundan **49** mlrd. importni tashkil qildi.

Turizmdan tushadigan daromad deyarli **8,5** mlrd.AQSH dollarini tashkil qiladi.

Turkiyaning hozirgi iqtisodiy-siyosiy muammolari.

- 1) mamlakatning ko'plab yerlari tog'lik joylarda joylashganligi sababli, qishloq xo'jaligining ba'zi tarmoqlarida qiyinchilik tug'dirmoqda;
- 2) qo'shni Iroq mamlaktidagi notinchlik.
- 3) Inflyasiya;

Global bank tarmoqlari

Dunyodagi eng katta **1000** ta banklarining mol-mulki 2009-2011 yilda **6.8%**ga oshgan va **96.4** trln dollorga teng, lekin uning foydasi **85%** ga tushgan va **115** mlrd dollorga teng. Yevropa bank aktivlarining **56%** qismi 2009-2011-yillarda to'g'ri keladi.

Osiyo bank aktivlari **12%**dan **14%** foizga oshgan. Amerika banklari **11%** dan **13%** oshgan

2011- yilga kelib bankning umumiy investitsion daromadi **66.3** mlrd dollorga ya'ni **12%** ga oshgan. Bugungi kunda kelib Turkiya iqtisodiyotidagi o'sish dinamikasi aralash sanoat va qishloq xo'jaligida **25.2%** ni tashkil qiladi. sanoat tarmoqlarining qishloq xo'jaligi, transport, bank, aloqa va kommunikatsiya hozirgi kunda to'xtovsiz ravishda o'sib bormoqda. Sanoatdagi muhim bo'lgan yo'nalishlar to'qimachilik, kiyim-kechak asosan qo'l mehnati orqali qilinadi. Shu sababli inflyatsiya **10.45%** ga kamaygan (1997-yilda inflyatsiya 90% ga yetgan)

Budjet foydasi: **32980** trln Turk lirasini bu taxminan **183** trln dollorga teng.

Sarflash: **35095** trln Turk lirasi bu taxminan **195** trln dollorga teng

Chet davlatlarga qarzlari **290.3** mlrd dollar

Sanoatda: To'qimachilik, oziq-ovqat, yengil mashina, yog'och sanoati, qog'oz **8.5%** ga oshgan

II BOB TURKIYADA TURIZMNING RIVOJLANISHI

2.1. Turkiya turizmi haqidaning umumiy ma'lumot

Turkiya turizmi asosan tarixiy joylarning xilma xilligi, dengiz bo'yidagi plajlari bilan butun dunyoga mashhur. Uning plajlari Qora dengiz va O'rta Yer dengizi qirg'oqlarida joylashgan. Butun jahon bo'yicha turistlar **983** mln kishini tashkil etadi. Bu Turkiyada esa 2011-yil ma'lumotiga ko'ra **31.5** mln kishini tashkil etadi, ya'ni bu butun jahon turistlarning **3.2%** ni tashkil etadi.

983 mln – 100%

31.5 mln - X

Turistlar asosan Turkiyaga Germaniya, Rossiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Arab mamlakatlari, Kavkaz va Yaponiya mamlakatlaridan tashrif buyurishadi. Shimoliy Amerika, Gruziya va Skandinaviya mamlakatlaridan ham qisman turistlar tashrif buyuradi. **Britaniyalik** turistlar Aeglan krort joylarida Bosfor qo'ltig'i yoki Marmar dengiziga tashrif buyurishadi. **Rossiyalik** turistlar Turkiyaning Janubiy O'rta Yer dengiziga va Antaliya shahriga tashrif buyurishadi. **Arab Yaponiya** va **Germaniyalik** turistlar esa asosan tarixiy joylar Efesusga va Istanbulga tashrif buyurishadi. Oxirgi 5 yil ichida **Ispaniyadan** turistlar oqimi sezilarli darajada oshib bormoqda. Masalan; 2007-yilda Ispaniyalik turistlar 200 000 kishi Turkiyaga kelgan bo'lsa, 2012-yilda kelib esa 280 000ga yetdi. Bu ham bo'sa **40%** ga oshgan.

200 000 – 100%

280 000 –X

Ko'pgina Ispaniyalik turistlar Istanbul mehmonxonalari buyurtma qilishadi. Buning sababi shuki, ular uchun shu joylar haqida ko'proq ma'lumotga ega va ular asosan Kapadokiya ga borishadi. Oxirgi 5-yil ichida Arablar ham oshib bormoqda.

Chet ellik turistlar 2002-yildan 2005-yilgacha bo'lgan davrda **12.8** mln.dan **21.5** mln.ga oshgan . Hozirgi kunda kelib esa **31.5** mln. ni tashkil etadi, ya'ni 3 yil ichida **67%** ga oshgan.

12.8 mln-100%

21.5 mln-X

2010-yilda esa turistlar soni 27 mln.ni tashkil etadi bugungi kundagi turistlar soni bilan taqqoslaganda va bu 1 yil ichida **16%** ga oshgan.

27 mln -100%

31.5 mln-X

2005-yil yillik turizmdan daromadi **17.5** mlrd dollorni tashkil etadi va hozirgi kunda kelib esa bu ko'rsatgich 23 mlrd dollorga yetgan va bu hozirgi kunda **31 %** ga oshgan (2011-yil dekabr ma'lumotiga ko'ra.)

17.5 mlrd -100%

23 mlrd-X

2.2 Turkiyaning asosiy turistik jozibadorliklari haqida ma'lumot

Istanbul dunyodagi eng katta shaharlardan biri hisoblanadai. U Turkiyaning dengiz porti, katta sanoat savdosi va san'at markazi hisoblanadi.Istanbul Rim, Vizantiya, Lotin va Osmon imperiyalarning sobiq poytaxti hisoblandi.Bosfort qo'ltig'ida joylashgan.Istanbul iqtisodiy rivojlangan markaz va asosiy sanoat shahri sanaladi. Asosan Turkiyada mashinasozlik va kemasozlik, kimyoviy sment, oziq-ovqat, yengil, polegraf yog'ochni qayta ishlash, qog'oz va shishasozlik, savdo-sotiq va turizm asosiy o'rinni egallaydi.Istanbulda asosiy mamlakatning banklari va chet davlatlarning sug'urta markazlari va agentliklari joylashgan. Eng katta muzeylardan biri Ko'k masjid, Sulaymon masjidi, Muqaddas Sofiya muzeye, Arxeologiya muzeyi tasviriy san'at va o'yma ko'rlik mazayka muzeyi,

Turkiya va Islom, G'arb muzeyi, san'ati Munisipal san'at muzeyi, Dolmobaxchey muzeyi Yidekulle monastir va boshqalar kiradi.

Maydoni: 5 196 kv.km .

Qishloq xo'jaligi: 17 %

O'rmon hududi: 47%

Eng baland cho'qqisi: 537 metr (Osiyo qismidagi Aydoss cho'qqisi)

Qishloqlar : 151 ta

Mahallalar: 814 ta

Tumanlari : 39 ta

Aholisi: 13 624 240 .kishi 2012-yil 1- yanvar ma'lumotiga ko'ra ya'ni bu taxminan turkiya aholisining 18.2 %ni tashkil etadi 51 % aholisi erkaklar,62.24% ni esa Istanbulning tashqarisidagi shaharlarda yashaydi.

Zichligi : 2622 kishi kv.km

Aholining o'sish darajasi: bir yilda bir 3.3% ni tashkil etadi

O'rtacha harorat: 13.6 *C, (selziy) doimiy namligi 79%, 15-16 *C dengiz harorati **Yalpi ichki mahsulot:** 25% dan ko'proq

Turistik xarakteristikasi

Istanbul butun dunyoda turistlar tashrif buyuradigan shaharlar ichida 9-o'rinda turadi.Turistlar: 8 057 879 (2011) ya'ni bu Turkiyaga kelaydigon turistlarning 25 %ni tashkil qiladi. Mehmonxonalar:1162 ta(35 ta 5 yulduzli, 70 ta 4 yulduzli, 90 ta 3 yulduzli 90 ta 2 yulduzli va 20 ta 1 yulduzli, maxsus 50 ta)
Beds:113 432 (2012) sayohat agentligi: 1 511 ta

63 ta muzey, **64** ta musulmonlar masjidi, **66** ta madrasa **49** ta ibodatxona **1** sinagoga, **17** ta saroylar bor .

Jami turistikjoylari: 349 ta

Ishsizlik darajasi:15.5% (461 185)

Turizm va madaniyat bosh vaziri **Ertuo'g'lu Gunay** fikricha "Istanbulning o'rni asosan yevropalik turistlarga bog'liq. 2023-yilda kelib 50 mln turist kelishini kutmoqdamiz " deb 2012-yil 21-avgusta o'z maruzasida takitlagan.

